

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**HARAKATLI O‘YINLARNI
TASHKILLASHTIRISH
VA O‘TKAZISHDA QO‘YILADIGAN
BA‘ZI PEDAGOGIK TALABLAR**

(Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya
o‘qituvchilari uchun)



TOSHKENT – 2021

УЎК 796.29

КБК 75.5

A 98

Ahmedov J.Q.

Harakatli o'yinlarni tashkillashtirish va o'tkazishda qo'yiladigan ba'zi pedagogik talablar [Matn] : J.Q. Ahmedov.-Toshkent: "Umid Design", 2021.- 32 b.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada harakatli o'yinlarni o'quvchilarning jismoniy rivojlanishidagi ahamiyati, o'qituvchining harakatli o'yinlarning tashkilotchisi va rahbari sifatidagi asosiy vazifalari, harakatli o'yinlardan namunalar va o'yinni o'tkazish haqida tushunchalar berilgan.

Tuzuvchi-muallif:

J. Ahmedov – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali Jismoniy tarbiya metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar: Y. Masharipov – Samarqand Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida p.f.n. dotsenti.

H. T. Rofiyev – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Samarqand filiali "Jismoniy tarbiya metodikasi" kafedrasida mudiri, professor.

Mas'ul muharrir: B. N. Saidov – O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari p.f.n. dotsent.

Ushbu uslubiy ko'rsatma Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya etilgan. (2019 yil 28 dekabr, 10 - sonli bayonnoma)

Kirish

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya metodi va vositasi sifatida maktabda jismoniy tarbiya darsida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturiga mos ravishda gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, kurash, suzish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar dastur talablariga mos ravishda ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini hal etishi uchun foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya darslaridagi o'yinlarni boshqa mashg'ulot shakllaridan farqi eng muhimi o'yinni ta'limiy va sog'lomlashtirish tomoniga diqqatni qaratish kerak, shuningdek, jismoniy tarbiya sifatiga ham.

Dars uchun o'yin tanlashda, darsning vazifasini, o'quv materialini, o'yinga kiruvchi harakat turlarini, o'yinning fiziologik yuklamasini, ishlash uchun shart-sharoitni hisobga olish zarur.

Har bir o'yinda o'yin qatnashchilaridan bilim va malakalarini namoyon qilishni talab qilinadi, uni o'yin jarayonida takomillashtiradi. Elementar o'yinlarga maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Biroq shunday o'yinlar borki, murakkab harakatlardan tashkil topgan. Masalan, quyidagi o'yinlarni o'quvchilarga taklif qilish mumkin emas, ("To'p kapitanga", "To'p o'rtadagiga") agarda ular to'p oshirishni uni ilib olishni bilmasa va raqib bilan bir-biriga tegishida uzatishni, yaxshi reaksiyaga harakat koordinatsiyasini va boshqa zarur bo'lgan sifat va malakalarini egallamagan bo'lsa.

O'yinga kiritilgan, murakkab harakatlarni shug'ullanuvchilar maxsus mashqlar yordamida o'zlashtiradilar. Istisno tariqasida avvaldan o'rgatishni talab qilmaydigan elementar va tabiiy harakatlar bo'lishi mumkin. Masalan, "Bo'ri zovurda" o'yinida yugurib kelib uzunlikka sakrash tabiiy bo'ladi. Jismoniy tarbiya boshqa vositalari o'rtasida o'yinni o'rmini yoki joyini aniqlash zarur va ular o'rtasidagi ketma-ketlik metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Bu esa qo'yilgan vazifani yaxshilab hal etilgan darsni zichligini oshirishga va mashqni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi. Koordinatsiyasi bo'yicha murakkab mashqdan keyin bir joyga to'plangan diqqatni talab qilmaydigan ko'proq oddiy topshiriqlarga amal qiladi.

O‘QITUVCHINING HARAKATLI O‘YINLARNING TASHKILOTCHISI VA RAHBARI SIFATIDAGI ASOSIY VAZIFALARI

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda quyidagi asosiy vazifalarni nazarda tutishi lozim:

O‘quvchilarning jismoniy jihatdan normal o‘shishlariga, salomatliklarining yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining o‘shishiga yordam berish. O‘quvchilarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini beradigan zaruriy bilimlar berish va ularda kerakli harakat malakalari hosil qilish. O‘quvchilarda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash. O‘quvchilarda turli o‘yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, rejimga rioya qilishga qiziqish uyg‘otish. O‘quvchilarda harakatli o‘yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o‘tkazish uchun zaruriy bilim va malakalar hosil qilish. O‘qitish jarayonida bunday vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarda axloq normalarining tarkib topishi, shuningdek, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining ham bajarilishiga erishish lozim.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda o‘qituvchining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi roli juda mas’uliyatlidir. O‘yinni o‘rgatish jarayoni shunday uyushtirilishi kerakki, unda bolalarga o‘zaro o‘rtoqlarcha munosabatda bo‘lish, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish tuyg‘ulari singdirilsin.

O‘yinni to‘g‘ri tanlash va o‘quvchilar bilan uni to‘g‘ri o‘tkazish juda muhim ahamiyatga egadir. Ammo o‘yinni tanlash va o‘tkazishning o‘zi hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifalarni hal qilavermaydi. Tarbiyaviy ish sohasida yaxshi natijaga erishish uchun o‘qitish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish zarur.

Bunda harakatli o‘yinlar tashkil qilinishi va o‘tkazilishining doimo tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lishi juda muhimdir. O‘yin rahbari bolalar jamoasini yaxshi bilgan, har o‘tkaziladigan o‘yinning mazmun va qoidalari bilan mufassal tanishgan, o‘qitish jarayonida esa yuksak pedagoglik mahoratni namoyish qila olgan taqdiridagina har bir o‘yinni ta’lim-tarbiya nuqtai nazaridan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi mumkin.

Bolalar o‘yin jarayonida o‘z xarakterlari va shaxsiy xususiyatlarini namoyish qiladilar. Bu o‘qituvchi uchun bolalarning turli xislatlari bilan tanishish hamda ularning uyushqoqsizlik, o‘ta ta’sirchanlik, o‘yin

qoidalarini buzish kabi salbiy xislatlarining o'z vaqtida oldini olish imkonini beradi. Bu bilan o'qituvchi o'yinni muayyan yo'lga solib, o'quvchilarda sofdillik, mardlik, o'zaro o'rtoqlik munosabatida bo'lish hamda jamoa oldida o'z burchini sezish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi bolalarning o'yin qoidalarini buzmaganda ijodiy tashabbus ko'rsatishlariga har jihatdan yordam beradi. Ba'zan o'qituvchi o'z oldiga hal qilinishi qiyinroq bo'lgan vazifani, masalan, o'quvchilarga basketbol va boshqa o'yinlardagidek to'pni uzatish va ilib olish, savatga tashlash, yerga urib-urib to'g'ridan va yo'nalishni o'zgartirib olib yurishni o'rgatish vazifasini qo'yishi mumkin.

Demak, bolalar uchun harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish jarayoni tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi kerak.

Harakatli o'yinlarni o'rgatish metodikasi qanday bo'lishi lozim? Bunda o'yin rahbari nimalarga e'tibor berishi kerak?

O'qituvchi o'yinlarni o'rgatish jarayonida didaktik prinsiplardan foydalanishi va ularning doimo amalga oshirilishiga erishishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga har bir o'yinni o'rgatish paytida o'yinning mazmuni, vazifalari va qoidalarini tushuntirib beradi. O'yinga ongli munosabatda bo'lish, uni to'g'ri o'rganib olish, o'z xatolari va muvaffaqiyatlarini to'g'ri tushunish va o'zining harakatlarini o'rtoqlarining harakatlariga bog'lab tahlil qilish imkonini beradi. O'yin yoki ayrim mashqlarni o'rganishda o'qituvchiga ko'r-ko'rona taqlid qilaverish yaramaydi. O'qituvchi tomonidan o'rgatiladigan va o'quvchilar tomonidan tushunib qilinadigan harakatlar bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam berishi kerak. Bunga o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilardan hakamlar va hakam yordamchilari tayinlash yo'li bilan erishiladi. O'qituvchi bolalarga o'ynatiladigan o'yinlar biror maqsadga erishishda muayyan qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lishi uchun o'yin jarayonida bajariladigan har bir vazifaning amalga oshirilishiga erishishi va to'siqlarning qanday yengilayotganiga qarab, ularni murakkablashtirib borishi zarur. Bu bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatadi, ularning irodasini mustahkamlaydi.

O'qituvchi o'yinni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'yinning konkret vazifalarini belgilab chiqadi. Bu vazifalar bolalarning yoshiga to'g'ri keladigan, ya'ni ular bajara oladigan bo'lishi kerak.

O'yinni tashkil qilish va o'tkazishda o'quvchilarni imkon boricha tashabbus ko'rsatib o'ynaydigan o'yinlarda tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lgan aktiv kishilar tarbiyalanadi. Belgilangan maqsadga erishish

uchun o'rtog'iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o'rtoqlari bilan birgalikda darhol qaror qabul qilish – ijodiy tashabbuskorlikdir. Agar bolalar o'yinni ilgariroq o'zlashtirib olgan bo'lsalar, o'yin paytida ularning aktivligi yanada ortishi mumkin. O'yin paytida bolalarning aktivlik ko'rsatishi o'qituvchining bu o'yinni o'tkazishga qanchalik tayyorlanganligiga ham bog'liq bo'ladi. O'qituvchi o'yinni aniq va ravshan tasavvur qilishi, o'yin paytida o'ynovchilar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatni tushunishi lozim.

O'yin rahbari keyinchalik bolalarning o'yinni o'zlashtirishlariga qarab, ularga sardorlik, hakamlik qilish ishlarini topshirishi va bolalar o'yinga uyushqoqlik bilan qatnashadigan bo'lganlaridan keyin ular orasidan o'ziga yordamchilar tayinlashi kerak. Shunda ham bolalar o'yinini rahbarning o'zi kuzatib turmog'i lozim. O'yinni obrazli qilib tushuntirish eng muhim momentlardan biridir. Bu ayniqsa syujetli o'yinlarni gapirib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'yin qatnashchilarining o'z rollarini to'g'ri bajarishlariga yordam beradi. O'yin rahbari o'yin mazmunining yaxshi o'zlashtirilishi uchun og'zaki tushuntirishni ko'rsatish bilan, ya'ni o'yindagi ayrim harakatlarni o'zi bajarib ko'rsatishi bilan mustahkamlanishi lozim. Shuni unutmaslik kerakki, o'qituvchi o'yinni tushuntirishida va harakatlarni bajarib ko'rsatishida, ko'rsatma qo'llanmalardan foydalanishida o'yinning konkret vazifalarini nazarda tutishi zarur. Masalan, bolalarga yangi o'yin o'rgatish, shu o'yin texnikasining ayrim elementlarini majburiy ravishda qayta ko'rsatish vaqtlarida o'yinning konkret vazifalarini nazarda tutish kerak. O'yinlarni rejalashtirishda ularning mazmuni va ular o'rtasida bir-biriga bog'liqlikni nazarda tutish, muayyan yoshdagi o'quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifalariga asoslanish kerak. Masalan, yangi orttirilayotgan bilim va malakalar ilgari bilgan bilan bog'lab borilishi, ilgari orttirilgan bilim va malakalar esa yangilari bilan mustahkamlanib borilishi lozim. Oldingi mashg'ulotlarda to'pni uzatish, ilib olish, o'ynatib olib yurish va savatga tashlash texnikasining asosiy elementlari o'rganilgan deylik. Mana shu bilim va malakalarni mustahkamlash maqsadida "To'p kapitanga" o'yinini yoki uch variantli "To'p o'yinlari"ni tavsiya etish mumkin. qatnashuvchilarning o'sish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos keladigan o'yinlarni tanlash va o'tkazish lozim. Har bir o'yinning o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo'ladi. Ammo shunday o'yinni tanlab olish kerakki, undagi qiyinchiliklarni o'quvchilar muayyan darajada kuch sarflab yengilsinlar.

To'siq yoki qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni yetarli ravishda kuch sarflashni talab qilmaydigan o'yin bolalarda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Tanlangan o'yin bolalarning qo'lidan keladigan bo'lishi kerak. Bu bolalarni o'z kuchlariga ishonadigan qilib tarbiyalashda juda muhim ahamiyatga egadir.

Juda yengil yoki, aksincha, haddan tashqari og'ir o'yinlar qiziqarli o'tmaydi. O'qituvchi o'yinlarni o'rgatishda oddiylaridan boshlab, asta-sekin murakkablariga o'tishi lozim. Tashkil qilinishi jihatidan sodda bo'lgan va komandalarga bo'linmay o'ynaladigan o'yinlar oddiy o'yinlar qatoriga kiritiladi. Bunday o'yinlarning qoidalari juda oson bo'ladi. Babbaravar jamoalarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bir oz murakkab va eng murakkab o'yinlar jumlasiga kiritiladi. Bunday o'yinlarning qoidalari boshqa o'yinlarning qoidalariga qaraganda qiyinroq bo'ladi. O'qituvchi hamma vaqt yengil o'yinlardan murakkab o'yinlarga, tanish o'yinlardan notanish o'yinlarga o'tishni nazarda tutishi kerak. Bunday qilish bolalarni o'yinga qiziqtirishga yordam beradi. Yangidan o'rganiladigan o'yinlar harakatlarining turi jihatidan tanish o'yinlarga o'xshash bo'lishi lozim. Ammo bunday o'yinlarga hali bolalarga noma'lum bo'lgan qoidalar va ba'zi bir harakatlar kiritiladi. Masalan, aytaylik, o'quvchilar "Epchil bolalar" o'yinini biladilar, demak, endi ularga "Ikki yaxob" o'yinini o'rgatish mumkin. Bu har ikkala o'yin o'zining strukturasi jihatidan ham, harakatlari jihatidan ham bir-biriga ancha o'xshashdir, lekin ikkinchi o'yinning qoidalari birinчисinikiga qaraganda birmuncha murakkablashtirilgandir.

Shunday qilib, o'yinlar asta-sekin murakkablashib boradi, yangi-yangi o'yinlar o'rganiladi. Bu esa bolalarda yangi harakat ko'nikmalarini hosil qilishga va ilgari o'rganilgan texnika elementlarini takomillashtirishga yordam beradi, harakat ko'nikmalarining, shuningdek, o'yinda ilgari orttirilgan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishmoq uchun materiallarni muntazam ravishda takrorlab va mustahkamlab borish zarur. Ammo bundan bir xil o'yinlarni muntazam ravishda takrorlab borish lozim, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda rahbar mazmuni jihatidan har xil bo'lgan o'yinlarning ma'lum bir qismini qaytarishni nazarda tutishi va o'quvchilarning o'yinlarni yaxshilab o'zlashtirib olishlariga erishuvi kerak. O'qituvchi bolalar o'yinini muntazam ravishda tekshirib borishi lozim. Bunday qilish o'yin qatnashchilarining kamchiliklari va yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashga hamda bu kamchilik va xatolarni puxta o'zlashtirib

olishlari, ularga bu o'yinlardan lagerlarda va boshqa yerlarda mustaqil ravishda foydalanish imkonini beradi.

O'yin rahbarlariga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining o'yinga tayyorlanishi

O'yinni tanlash. Yaxshi tanlangan o'yin muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya berishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'yinni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan qiladigan ishlaridan o'yinga qatnashuvchilarning tarkibini, ularning yosh xususiyatlarini, shuningdek, jismoniy tayyorgarligini hisobga olib, dars oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalarni aniqlab chiqishi zarur. Ba'zan shunday bo'lishi ham mumkinki, yaxshi o'yin tanlanadi-yu, lekin u yomon o'tkaziladi. Bunday hollar tanlangan o'yinning o'ynovchilarning qiziqish-havaslariga mos kelmaganligi natijasida ro'y beradi va shuning uchun ham tarbiyaviy vazifalarni hal qila olmaydi.

O'qituvchi o'yinni tanlagan paytda mashg'ulotning qanday shaklda o'tkazilishini (agar mashg'ulot dars tarzida o'tkazilsa, o'yin darsning birinchi, ikkinchi yoki yakunlovchi qismida, tanaffus vaqtida va hokazolarda olib borilishini) bilishi kerak. O'yin o'tkaziladigan joy (sport zali yoki maydoncha, koridor va hokazo) hisobga olinishi lozim. O'yinni tanlash paytida ob-havo va havo harorati hisobga olinishi darkor. Agar o'yin qish paytida o'tkaziladigan bo'lsa, o'quvchilarni aktivlashtiradigan va jismoniy yuklamani bir tekisda taqsimlaydigan harakatliroq o'yinlarni tanlash kerak.

O'YINNI O'TKAZISH SHART-SHAROITLARI

Avvalo zaruriy asbob-uskunalar bo'lishi kerak. Masalan: diametri 8 smli arqondan, jundan, lattadan, rezinadan yasalgan koptokchalar (rezinadan yasalgan koptokchalar yuqori haroratda taranglik holatini yoqotadigan bo'lganligi uchun ularni salqin joyda saqlash kerak), voleybol va basketbol to'plari, irg'itish uchun uzunligi 1 mli tayoqlar, arqon, belbog'lar, bayroqchalar, kigizlar, taxtachalar, bolg'a, aptechka va boshqalar bo'lishi lozim. Ko'z og'rig'i kasaliga duchor bo'lmaslik uchun har bir o'quvchining o'z ko'z bog'lagichi bo'lishi kerak.

O'yin o'tkaziladigan maydoncha tekis bo'lishi, tikan, toshlar, shisha siniqlari va boshqa keraksiz narsalardan tozalanib, doimo ozoda tutilishi lozim.

Mashg'ulot o'tkazilayotgan paytda maydonchada begona kishilar bo'lmasligi kerak. Chunki ular xayolni bo'ladilar va kishini o'yindan chalg'itib, ortiqcha harakatlar qilishga majbur etadilar.

Maydonchani asbob-uskunalar bilan ta'minlash kerak, bundan tashqari, maydonchadagi tabiiy buyum va narsalardan ham foydalanish zarur.

O'yinlar quyidagi gigiena talablariga rioya qilingan holda o'tkazilishi lozim:

o'yin paytida kiyiladigan kiyim harakatlarni qiyinlash tirmaydigan, yengil bo'lishi kerak;

yo'zda o'yindan so'ng cho'milish darkor;

o'yin boshlanishidan oldin maydonchaga suv sepilishi lozim.

O'yinlarni suvda mashq qilish paytida o'ynovchilarning ko'karib va qaltirab ketmasliklari uchun bo'linadigan vaqt cheklab qo'yilishi lozim.

Yordamchilar tayinlash

O'qituvchi o'yin qoidalarining bajarilishini kuzatish va natijalarni hisobga olib borish uchun, shuningdek, asbob-uskunalarni tarqatish va asboblarni o'rnatish uchun o'ziga yordamchilar tanlab olishi mumkin. Yordamchi o'yinning bo'lajak tashkilotchisidir. Yordamchi o'yinlarga xolisona munosabatda bo'lishga odatlanishi kerak. Keng joylarda o'ynaladigan o'yinlarni o'tkazishda shu o'yinlarda anchagina tajriba orttirgan o'quvchilarni o'qituvchiga yordamchi qilib tayinlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Sog'lig'i yaxshi bo'lmagan va jismoniy tarbiya darsidan vaqtincha ozod etilgan o'quvchilarni o'yinda holi yetganicha qatnashtirish maqsadida ham yordamchi qilib tayinlash mumkin, ba'zan uncha intizomli bo'lmagan yoki haddan tashqari aktiv bolalarning hulqini yaxshilash maqsadida ularni ham o'qituvchiga yordamchi qilib tayinlaydilar.

O'yinni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun qatnashchilarga uning mazmunini iloji boricha qisqa va aniq qilib so'zlab berish kerak. O'yin mazmunining hikoyasi ifodali, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan bo'lishi lozim. Uzundan uzoq va bir ohangda so'zlash bolalarni zeriktiradi va o'yinga bo'lgan qiziqishlarini pasaytiradi.

O'yin quyidagi reja asosida tushuntirilishi lozim:

o'yinning nomi;

o'yinga tayyorlanish;

o'yin tasviri;

o'yin qoidalari;

metodik ko'rsatmalar.

O'qituvchi o'ynovchilarda zaruriy kayfiyat yaratishi, muayyan o'yinga nisbatan qiziqish uyg'otishi va ularni mustaqil o'ynay olishga o'rgatishi lozim. Har bir o'yinni oxirigacha, to'liq o'zlashtirilgungacha davom ettirish kerak. Bir o'yinni ikkinchisi bilan tez-tez almashtirib turish ham yaramaydi. Ammo bundan o'yinni qatnashchilar zerikkanlariga qadar davom ettirish lozim, degan ma'no kelib chiqmaydi.

O'yinni bolalarning charchashlarini kutmasdan, ularga qanchalik ta'sir etayotganligiga qarab tamomlash lozim. O'yinning qancha vaqt davom etishi o'ynovchilarning soniga va yoshiga, o'yinning xarakteri va sur'atiga, texnik uskunalarining (abob-anjomlarning) miqdoriga, ob-havo va boshqa belgilarga bog'liq bo'ladi.

O'ynovchilarning emotsional holatlariga qarab o'yinning borishini tartibga solish va boshqarish, uning maqsadini, qoidalarining ma'nosi va ahamiyatini bilshi kerak. O'quvchilarning o'yin qoidalariga rioya qilishi kerakli doimo o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim. Chunki o'yin qoidalariga rioya qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'qituvchi odil hakamlik namunasini ko'rsatishi, o'ynovchilarning xatolarini shoshilmasdan va ob'ektivlik bilan qayd qilib o'tishi va har bir o'yinchini umumiy qoidalarga bo'ysunishga majbur qilishi kerak. Barcha o'yinchilar uchun, ayniqsa guruhli o'ynlarda, sharoitning bir xil bo'lishini sezgirlik bilan kuzatib borish zarur. Har bir bolaga o'yindagi bosh rolda o'z o'quvi va bilimlarini aniqlash uchun imkon berish maqsadida onaboshilarning navbatini belgilab qo'yish tavsiya etiladi. O'yinning bajarilishini ta'minlaydigan eng muhim shart – bu intizom va ana shu intizomning qat'iy o'rnatilishi hamda unga og'ishmay amal qilinishidir. Bu esa, asosan, o'qituvchiga bog'liq bo'ladi.

O'yinga rahbarlik qilish

O'yinning o'rganilishi va o'yin paytida bolalarning o'zlarini qanday tutishlari ko'p jihatdan rahbarga bog'liq bo'ladi. O'yin shartli signal (komanda berish, hushtak chalish, qarsak chalish, qo'l yoki bayroqchani silkitish) bilan boshlanadi. O'qituvchi barcha o'yinchilarning o'yin mazmunini tushunib olganliklariga va qulayroq yerga joylashganliklariga qanoat hosil qilgandan keyin signal beradi. Shartli chegaralar oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi, o'yin uchun zaruriy qo'llanmalar esa o'yin qoidalariga muvofiq ravishda oldindan bo'lib berilgan va joy-joyiga qo'yilgan bo'lishi lozim. Rahbar o'yin boshlanishi bilanoq, o'yinning borishi va ayrim o'ynovchilarning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatadi

hamda o'yinning to'g'ri borishi uchun o'ynovchilarning harakatlarini boshqarib boradi. Bundan tashqari, o'yin davomida ayrim qoida va usullarni qo'shimcha ravishda tushuntiradi. Yuzatish va mulohazalarni shunday aytish kerakki, ular o'yinning borishiga halaqit bermasin, ya'ni uni to'xtatib qo'ymas. Agar o'ynovchilarning ko'pchiligi bir xil xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, tegishli tuzatish kiritish yoki qoidalarning qanday bajarilishini ko'rsatib berish maqsadida o'yinni to'xtatish mumkin. O'yinni baqirish yoki keskin komanda berish yo'li bilan to'xtatish yaramaydi. Bolalarni (katta yoshdagi bolalarni) "Diqqat!" degan shartli signal berish yoki hushtak chalish bilan to'xtashga o'rgatish lozim.

O'qituvchi bolalarda o'yin qoidalarini ongli ravishda va aniq bajarish odatini tarbiyalashi kerak. Bunday odat bolalarni intizomli qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, u kishida o'z burchini sezish va o'z xatti-harakati uchun javobgarlik hissini tarbiyalash hamda o'zini tuta bilish va matonatlilikni o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchining vazifasi – o'ynovchilardan o'yin qoidalarining aniq bajarilishini talab qilishdir. Ammo u bolalar o'yinni yomon o'zlashtirayotgan paytlarida ortiqcha bachkanalik qilmasligi kerak.

O'ynovchilar tomonidan qilinadigan qo'polliklarning oldini olishga alohida e'tibor berish lozim. qo'pollik qilgan o'yinchini albatta jazolash kerak. Bunday hollarda ba'zi bir ta'sir etish choralari – vaqtincha o'yindan chiqarib yuborish, jarima ochkolar berish va shu singari choralarni qo'llashga yo'l qo'yiladi. O'yinga shunday rahbarlik qilish kerakki, o'yinchilar faqat o'yin natijalarigagina qiziqmasinlar, o'yin jarayonining o'zidan ular rohatlansinlar.

Ayniqsa uncha aktiv bo'lmagan o'yinchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish va bu bilan ularda o'z kuchlariga ishonch orttirish tavsiya etiladi.

O'ynovchilar o'rtasida o'zaro o'rtoqlarcha to'g'ri munosabat o'rnatishga harakat qilish, g'oliblarning kekkayib ketishlari va o'tqazganlarning o'yinga bo'lgan qiziqishlarining susayishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

O'ynovchilar o'yinni yaxshilab o'zlashtirib olishlari uchun uni bir necha marta qaytarish lozim. Shuni unutmazlik kerakki, o'yinchilar o'yindan qanchalik ko'proq mamnun bo'lsalar, uni shunchalik yaxshiroq esda saqlab qoladilar.

O'yindagi intizom

O'yindagi intizomlilik deb, o'yinchining barcha o'yin qoidalarini, o'z zimmasiga yuklatilgan hamma vazifalarni ongli va vijdonan bajarishidan iborat bo'lgan xulqiga aytamiz. Bunday o'yinchi maqsadga erishish uchun o'z jamoasi bilan birgalikda harakat qiladi.

Ongli intizom o'yinning yaxshiroq o'zlashtirilishiga, o'yinchilar kayfiyatining yaxshilanishiga yordam beradi. Buning natijasida mashg'ulotlar yanada qiziqarliroq bo'lib qoladi.

O'quvchilarni o'yinda o'z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish, bir-biriga o'rtoqlik yordami berish ruhida tarbiyalash bilan ana shunday intizomga erishish mumkin. Ba'zan o'yin mazmunini yetarli darajada yaxshi anglab olmasdan, o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan qoidalarni buzadilar, o'zaro bahslashadilar, taktik jihatdan xatoliklarga yo'l qo'yadilar va bir-birlariga qo'pollik qiladilar. Rahbar esa bu xatoni yana bir marta o'yinni tushuntirish bilan osongina tuzatishi mumkin.

Bolalarning o'yin paytidagi intizomi ko'p jihatdan o'yinga to'g'ri rahbarlik qilishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham intizom buzilganda o'qituvchi intizom buzilishiga sababchi bo'lgan xatolarni qidirishi lozim.

Hakamlik qilish

Har bir o'yin ob'ektiv va odilona hakamlik qilishni talab qiladi. Agar o'yin qoidalarining bajarilishini diqqat bilan va jiddiy ravishda kuzatilmasa, o'yin o'zining ta'lim-tarbiyaviy qiymatini yo'qotadi. Hakamlik rolini ko'pincha o'yin rahbarining o'zi bajaradi. Ammo bu rolni o'ynovchilardan birortasi (bolalarning o'zlari saylagan yoki o'qituvchi navbat bilan tayinlagan o'ynovchi) bajargani ma'qulroq bo'ladi. Bunday qilish bolalarda tashkilotchilik malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Agar o'yinga bolalardan birortasi hakamlik qilsa, rahbar o'zining fikr va mulohazalarini o'ynovchilarga shu hakamlik vazifasini bajarayotgan o'yinchi orqali aytadi.

Rahbar-hakam o'yinning borishini diqqat bilan kuzatishi va imkoni boricha har bir o'yinchini nazorat qilib turishi lozim. Faqat shundagina o'yinning natijasiga ob'ektiv baho berish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, xolis turmagan hakamga o'ynovchilar ishonmay va u bilan hisoblashmay qo'yadilar. Bunday hakamning obro'si qolmaydi.

Rahbar-hakam jamoalarning kuchi va o'yinchilarining soni jihatidan teng bo'lishini, shuningdek, qatnashchilar uchun bir xil sharoit yaratilishini

(o'ynaladigan joy, asbob-uskunalar va boshqalar jihatidan) kuzatib borishi kerak.

Hakam o'yinda qo'polliklar bo'lishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Agar hakam o'yin usullarining to'g'ri bajarilishini kuzatib tursa, u vaqtda butun o'yin texnikani takomillashtirishga va chaqqonlikni orttirishga qaratilgan bo'ladi. Hakam o'yin jarayonida tarbiyachi rolini ham bajarishi, bolalarda kelgusida zarur bo'ladigan xislat va malakalarni takomillashtirish va mustahkamlashga yordam berishi kerak.

O'yinda qilinadigan harakatlarni muayyan me'yorda olib borish

O'yinda qilinadigan harakatlarni to'g'ri belgilash o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi. O'yinni o'tkazishga kirishishdan oldin qilinadigan ishning xarakteri va o'ynovchilarning kayfiyatini hisobga olish lozim. Agar o'yinchi o'tkazishga kirishishdan oldin qilinadigan ishning xarakteri va o'ynovchilarning kayfiyatini hisobga olish lozim. Agar o'yin jismoniy yoki aqliy jihatdan ko'p kuch sarflashni talab etadigan darslardan keyin (nazorat ish yozish darsi yoki boshqa mashg'ulotlardan so'ng) o'tkaziladigan bo'lsa, o'ynovchilarni kamroq yoki o'rtacharoq harakatlanishga majbur etadigan o'yinlarni tanlash kerak.

Mashg'ulot paytida o'yinlarning tezligi – umumiy harakatchanligini hisobga olib, ularni bir-biri bilan almashtirib turish lozim. Masalan, hamma o'ynovchilar bir vaqtda yuguradigan o'yindan keyin navbati bilan to'p irg'itadigan o'yinni o'tkazish foydalidir. O'yin sur'atini susaytirish, ya'ni o'yindagi harakat tezligini kamaytirish o'yinda qilinadigan harakatlarni muayyan me'yorda olib borish usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'yinda bolalar jismoniy mashqlarni bajarish paytida juda hayajonlanib ketadilar. Shuning uchun o'qituvchi o'ynovchilarning kayfiyatiga qarab ish tutmasligi kerak. U o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, tayyorgarligi va salomatligini ham hisobga olishga majburdir. O'qituvchi onaboshilarning ahvoli va harakatini alohida kuzatib borishi zarur. Shifokorning har bir o'quvchiga oid ma'lumotlarini ham unutmash lozim. qilinadigan harakatlarni muayyan me'yorda olib boorish o'yin o'tkaziladigan turli sharoitlarni hisobga olib, o'yin o'tkazish metodikasi bilan belgilanadi.

O'yinni tamomlash

O'yinni cho'zib yuborish mumkin bo'lmaganligi singari uni belgilangan vaqtdan oldin tamomlash ham yaramaydi. Rahbar o'yinni

bolalar bir necha marta qaytarganlaridan keyin yoki o'yin boshlanganidan so'ng ma'lum vaqt o'tganidan keyin to'xtatishi kerak.

O'yin natijalariga yakun yasash

O'yin natijalariga yakun yasash zo'r tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'qituvchi o'yin tugagandan so'ng ayrim o'yinchilarning harakatlariga va umumiy o'tkazilgan o'yinga baho berib, o'yin natijalariga yakun yasaydi. Yaxshi o'ynagan va o'yin qoidalariga rioya qilgan bolalarni alohida ko'rsatib o'tish zarur. O'yinni tahlil qilish o'yin qoidalarining yaxshiroq o'zlashtirilishiga va o'yin jarayonida paydo bo'lgan kelishmovchiliklarni hal qilishga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchiga bolalar o'yinni qanchalik o'zlashtirganligi, ularga nima ma'qul tushganligini va kelgusida qaysi momentlar ustida sixlash kerakligini aniqlash imkonini beradi. Harakatli o'yinlar uchun kundalik ish daftarchasi tutish foydaliroq bo'ladi. O'qituvchi bu daftarchadagi o'yinchilar ustida olib brogan kuzatishlarini yozib boradi va shu yozuvlar orqali o'z xatolari va muvaffaqiyatlarini tahlil qiladi. Bu esa o'yinlarni o'rgatish metodikasini yaxshilash va uni turlicha sharoitlarga qarab o'zgartirish imkonini beradi. Erishilgan natijalarni ob'ektiv ravishda hisobga olish uchun muntazam ravishda yozib borilishi lozim bo'lgan shifokor va o'qituvchilar nazoratining ma'lumotlari kerak bo'ladi.

HARAKATLI O'YINLARDAN NAMUNALAR

Epchil bolalar

O'yin tasviri. Maydoncha kalta tomonlarining har biridan 3-4 qadam nariga shu tomonlarga parallel qilib bittadan chiziq tortiladi. Onaboshidan boshqa hamma o'yinchilar shu chiziqlardan birining orqa tomonida sarflanib turadilar. Onaboshi maydonchanning o'rtasida chiziq orasida turadi.

Rahbar "Uch, to'rt!" degandan keyin o'quvchilar bir ovozdan shunday deydilar:

Biz quvnoq bolalarmiz,

O'yin-kulgini sevamiz.

Qani o'rtoq, quvib ko'r,

Bittamizga yetib ko'r.

Oxirgi so'z aytib bo'linishi bilanoq o'quvchilar qarama-qarshi tomonga yugurib o'tadilar. Onaboshi yugurib o'tayotganlarni qo'l tegizib

to'xtatishga harakat qiladi. Onaboshi qo'l tegizgan o'yinchilar o'sha joyda to'xtab qoladilar. O'yin rahbari bu o'yinchilarni belgilab oladi va ularga yana o'yinda qatnashishga ruxsat beradi. Qolgan o'ynovchilar maydonchani ensiz tomonidagi chiziq orasida to'planadilar va u yerdan yana maydonchani qarshi tomoniga yugurib o'tadilar. O'yin shu tartibda davom ettirilaveradi. Onaboshi uch va undan ko'p marta to'xtatgan o'yinchilar yutqazgan hisoblanadi.

O'yin qoidalari. 1. Yugurib o'tish paytida bir-birini tutish mumkin emas. 2. Yugurib chiqqan o'yinchilarning orqaga qochishlari mumkin emas.

E s l a t m a. Aytiladigan bandni 2-3 marta qaytarish va yod olish kerak. Shundan keyingina o'yinga kirishish lozim.

O'quvchilarni band so'zlarini uncha shoshilmasdan, bir tekisda aytishga o'rgatish kerak.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Chap berib yugurib qochish.

Qo'lingni ber (petna o'yini)

O'yin tasviri. O'yin maydonchasi har tomondan chiziqlar bilan chegaralanadi. Bir o'ynovchi petnachi qilib tayinlanadi va u maydoncha o'rtasida turadi. qolgan o'ynovchilar uning atrofiga to'planadilar.

Petnachi "Men petnachiman!" deb qichqirganidan keyin har kim har tomonga yugurib ketadi. Petnachi ularni ushlash payida bo'ladi. Orqasidan petnachi quvlab kelayotgan o'yinchi "qo'lingni ber!" deb, o'rtog'ini yordamga chaqirishi mumkin. qo'l ushlashgan o'ynovchilarni petna qilib bo'lmaydi. Agar petnachi biron o'ynovchini sherigi bilan qo'l ushlamasdan oldinroq petna qilsa, ushlagan va ushlangan o'yinchilar joy almashadilar.

O'yin qoidalari. 1. Yangi petnachi avval "Men petnachiman!" deyishi va shundan keyingina o'ynovchilarni petna qila boshlashi lozim. 2. Uch sekunddan ortiq qo'l ushlashib turish mumkin emas. 3. Agar birdaniga uch kishi qo'l ushlashib qolsa, petnachi ulardan chekkada turganlarinigina petna qila oladi. 4. Maydonchadan tashqariga tashqariga chiqqan o'ynovchi qo'lga tushgan hisoblanadi.

Metodik ko'rsatmalar. Agar petnachi uzoq vaqt ichida hech kimni petna qila olmasa, uning o'rniga boshqa petnachi tayinlash kerak. O'yin rahbari o'quvchilarga o'z o'rtog'ini xatarli paytda albatta qutqarib olish kerakligini alohida ta'kidlab o'tishi lozim.

Hamma o‘z bayroqchasiga

O‘yin tasviri. O‘ynovchilar 3-4 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh doira hosil qilib turadi. Har bir doira markazida bittadan o‘yinchi qo‘lini balandga ko‘tarib bayroqcha ushlab turadi. Rahbarning birinchi signal berishi (qarsak chalishi) bilan bayroqcha ushlagan o‘yinchildan boshqa hamma bolalar maydoncha bo‘ylab tarqala boshlaydilar. Ikkinchi signal berilishi bilan har tarafga qochgan o‘yinchildar yugurishdan to‘xtab, cho‘nqayib o‘tiradilar va ko‘zlarini berkitadilar. Bayroqcha ushlagan o‘ynovchilar esa rahbarning ko‘rsatmasi bilan boshqa joyga o‘tadilar, ya‘ni joy almashadilar.

Rahbar “Hamma o‘z bayroqchasiga!” degandan so‘ng o‘ynovchilar ko‘zlarini ochadilar va birinchi bo‘lib doiraga saflanish uchun o‘z bayroqchalari tomon yuguradilar. Eng oxirida doira bo‘lib tuzilgan guruh yutqazadi.

O‘yin qoidalari. 1. O‘yinchi bayroqchani bir qo‘lidan ikkinchisiga olishi mumkin. 2. Ko‘zni aldamasdan berkitish lozim. 3. Qatnashchilari bir-biri bilan qo‘l ushlab tekis va tinch turgan davragina tizilgan doira hisoblanadi.

O‘yinning o‘ziga xos harakatlari, qisqa-qisqa yugurish.

Ikki yaxob

O‘yin tasviri. Maydonchani har bir ensiz tomonidan 3-4 qadam nariga va shu tomonlarga parallel qilib bittadan chiziq o‘tkaziladi. Atrofi chiziqlar bilan ajratilgan joy “uy” bo‘ladi.

Onaboshi qilib tayinlangan ikkita boladan boshqa hamma o‘yinchildar chiziqlardan birining orqasiga uyga joylashadi. Onaboshilar maydonchani o‘rtasida turadi. Rahbarning ko‘rsatmasiga binoan onaboshilar baland ovoz bilan:

Og‘a-ini navqiron,
Ikki yaxob qahramon
Men qizil burun – Yaxob,
Men ko‘kcha burun – Yaxob
Bormi jur‘at etuvchi,
Yo‘l – safarga chiquvchi?
deydi.
Bolalar bir ovozdan
Do‘qni pisand qilmaymiz,
Sovuqdan hech qo‘rqmaymiz.

Deb javob beradilar. Shundan keyin bolalar maydonchanning qarshi tomoniga yugurib o'tadilar.

Onaboshilar – yaxoblar yugurib o'tayotganlarni quvib yetib ularga qo'l tegizadilar. Yaxoblarning qo'li tekkan o'yinchilar qattiq sovuqda qotib qolgan singari to'xtab qoladilar, qolgan o'ynovchilar chiziq orqasidagi uyga to'planadilar. Rahbar ushlangan o'yinchilarni aniqlab boradi.

Undan keyin o'yinchilar xuddi shu tartibda maydonchanning bir tomonidan ikkinchi tomoniga bir necha marta yugurib o'tadilar. Ammo o'yinchilar har yugurib o'tishlarida o'zlarining ushlangan o'rtoqlariga qo'l tegizib ularni qutqara oladilar, qutqarilgan o'yinchilar qolgan bolalar bilan birga chiziq orqasiga qochadilar.

Bir oz vaqt o'tgach, boshqa ikkita yaxob tayinlanadi. Yugurib o'tayotganlardan ko'pchiligini to'xtata olgan onaboshilar eng yaxshi yaxob hisoblanadi. Yaxoblar bir marta ham ushlay olmagan yoki boshqa bolalarga nisbatan kamroq ushlagan o'yinchilar yutgan hisoblanadi.

O'yin qoidalari. 1. Yugurib o'tish paytida bir-birini tutish ma'n etiladi. 2. Uydan yugurib chiqqan o'yinchilarning orqaga qaytishlari mumkin emas. 3. Onaboshilar – yaxoblar chiziq orqasida turgan o'yinchilarga qo'l tegiza olmaydilar.

E s l a t m a. O'ynovchilar bir ovozdan aytadigan so'zlarni o'yin boshlanishidan oldin o'rganib olishlari kerak.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Chap berib yugurish.

Bo'ri zovur ichida

O'yin tasviri. Maydonchanning ko'ndalangiga bir-biridan 1,5-2 qadam uzoqlikda parallel chiziqlar o'tkaziladi. Bu – zovur bo'ladi. Zovurning yon tomonidan 10-15 m nariga ikki uy chegarasini belgilaydigan yana ikkita parallel chiziq o'tkaziladi. Onaboshi qilib tayinlangan o'yinchi, ya'ni bo'ri zovurda turadi, qolgan o'yinchilar, ya'ni echkilar yon chiziqlardan birining orqasidagi "uy"ga joylashadilar.

O'qituvchi signal berishi bilan echkilar oldinga qarab yuguradilar, yo'lda zovur ustidan sakrab o'tib, maydonchanning qarshi tomonidagi chiziq orqasiga borib turadilar. Bo'ri zovurdan chiqmasdan, sakrab o'tayotgan echkilarni ushlashga (ularga qo'l tegizishga) harakat qiladi. Bo'ringa qo'li tekkan o'yinchi ushlangan yerida to'xtab qoladi. Zovurdan omon-eson sakrab o'tgan echkilar qarama-qarshi tomondagi chiziqqa qarab yuguradilar. Rahbar ushlangan o'yinchilarni aniqlaydi va shundan keyin

ularga o'yinda yana qatnashishga ruxsat beradi. Echkilar zovurdan uch marta sakrab o'tganlaridan keyin yangi bo'ri tayinlanadi.

Echkilarning zovurdan uch marta sakrab o'tishi paytida ko'proq echki tuta olgan bo'ri hamda bo'ri qo'lga biron marta ham tushmagan yoki boshqa o'yinchilarga qaraganda kamroq ushlangan echkilar o'yinda yutgan hisoblanadilar.

O'yin qoidalari. 1. O'yinchi sakrayotib zovurning ikkinchi tomonini bir oyog'i bilan bosgan bo'lsa ham onaboshi unga qo'l tegiza olmaydi. 2. Orqada qolgan o'yinchi rahbarning shoshmasdan "bir, ikki, uch" deyishidan kechikmasdan zovurdan sakrab o'tishi kerak, aks holda ushlangan hisoblanadi. 3. Zovurdan sakrab o'tmagan o'yinchi ham yutqazgan hisoblanadi.

E s l a t m a. O'yinchilar soni ko'p bo'lganda (yoki bolalarni o'yin bilan birinchi marta tanishtirish vaqtida) ularning hammasini birdaniga yugurtirmasdan, ikki yoki uch guruhga bo'lib navbati bilan yugurtirishi mumkin.

O'yini quyidagicha o'tkazish mumkin. Yugurib o'tuvchilar tomonida, zovurdan 4-5 qadam oldinda rahbar tayinlangan o'yinchilar yerdan 50-60 sm baland qilib (o'yinchilarning tayyorgarligiga qarab) arqoncha tortib turadilar. Echkilar oldin yugurib kelib arqonchadan sakrab o'tadilar, keyin zovurdan hatlaydilar. Arqonchani ushlab turgan bolalar har galgi yugurib o'tish tugagandan so'ng, navbatdagi yugurib o'tish boshlanadigan tomonga turadilar.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Chap berib va uzunlikka sakrab yana yugurishni davom ettirish bilan qisqa-qisqa yugurishlar.

To'p qo'shniga

O'yin tasviri. O'yinni o'tkazish uchun voleybol yoki basketbol to'pi bo'lishi kerak. O'yinovchilar quloch kerib, doira hosil qilib turadilar. O'yinovchilardan biriga to'p beriladi. Bitta onaboshi tayinlanadi. Onaboshi doiradan tashqarida, to'pi bor o'yinovchining orqasida turadi.

Rahbar signal berishi bilan o'yinovchilar to'pni o'zlarining o'ng yoki chap tomonlariga uzata boshlaydilar. Onaboshi esa to'pi bor kishini petna qilish payidan bo'lib, doira atrofida yugurib yuradi. Agar biron o'yinovchi to'p ushlab turgan paytida petna qilinsa, u onaboshi bo'ladi, uni petna qilgan onaboshi esa uning o'rniga kelib turadi.

O'yin qoidalari. 1. Onaboshining qayerda bo'lishiga qarab, to'pni o'ngga yoki chapga uzatish mumkin. 2. To'pni orada bir yoki bir necha

kishi qoldirib uzatish mumkin emas. 3. Qoidani buzgan va o'yin paytida to'pni yerga tushirib yuborgan o'yinchi onaboshi bo'ladi.

Dasta chikaldak (chillak o'yini)

O'yin ko'katzor, o'tloq joyda yoki sport maydonchasida o'tkaziladi. O'yin uchun uzunligi 80-100 sm.li, diametri 2-2,5 sm.li bir uchi yassi qilib tekislangan tayoq (dasta) va uzunligi 20 sm.li tayoqcha (chikaldak) kerak bo'ladi.

O'yinda ikkitadan o'ntagacha kishi qatnashishi mumkin. O'yinni yakkama-yakka o'ynasa ham, jamoalarga bo'linib o'ynasa ham bo'laveradi.

O'yin tasviri. Oldingi chiziqdan ko'pi bilan 2 m nariga dasta qo'yiladi. O'yinchilarga ana shu yerda yotgan dastaga chikaldakni tashlash huquqi beriladi.

Chikaldakni dastaga birinchi bo'lib tegizgan o'yinchilar o'yinni boshlash huquqiga ega bo'ladilar.

Buning uchun o'yinchi chikaldakni dasta uchiga qo'yib turib yengilgina shunday ko'tarib tashlashi kerakki, chikaldak qaytib tushib, dastaga tegzin va yana sapchib ko'tarilib, qaytib dasta ustiga tushsin va hokazo. Chikaldakning dastaga har bir tekkani uchun bittadan ochko beriladi.

O'yinchi shu tartibda necha ochko to'plagan bo'lsa, shuncha marta dasta bilan chikaldakni urib uni to'g'riga otadi. Agar har bir otganda chikaldak 20-30 m nariga borib tushsa, 3-4 ochko bo'yicha otganda umumiy masofa 90-100 m gacha yetkazilishi mumkin.

Yutqazgan o'yinchi yoki raqib jamoaning o'yinchisi bu masofaning hammasini yugurib o'tishi kerak.

Shunisi ham borki, bu masofani o'yinchi nafasini yutib turib yugurib o'tishi lozim. Agar chopib ketayotgan vaqtda nafas olinsa, yoki chaqirilsa, o'yin qaytariladi, ya'ni chikaldakni urib otish yo'li bilan yana chopib o'tiladigan masofa belgilanadi.

O'yin qoidalari. 1. Dasta bilan chikaldakni silkitib tashlaganda chikaldak dastaga 3 martadan ortiq tegmasligi kerak. 2. Chikaldakni yerda yotgan dastaga tashlayotganda o'yinchilar o'yinni boshlash chizig'ini bosishlari mumkin emas. 3. O'yinchi nafas olmasdan belgilangan masofani to'la yugurib o'tishi lozim. 4. O'yinchi belgilangan masofani chopib o'tishdan bosh tortsa, u ashula aytib berishi, o'ynab berishi yoki she'r o'qib berishi kerak.

Metodik ko'rsatmalar. Nafas olish yuzasidan tushunmovchilik chiqmasligi uchun yuguradigan o'yinchi qo'ng'izning zuvillashiga o'xshab ovoz chiqarib chopishi lozim.

Ko'z bog'lash

Bu o'yinni zalda yoki sport maydonchasida o'tkazish mumkin.

O'yin tasviri. O'yin qatnashchilari bir-birlari bilan qo'l ushlab doira hosil qilib turadilar. O'yin rahbari yoki o'qituvchi o'ynovchilardan ikkitasini davra o'rtasiga chaqiradi. Ularning ko'zlarini toza ro'molcha bilan bog'lab, birining qo'lga qo'g'irchoqcha yoki ikkita kichkina tosh beradi. Keyin ularni turli tomonlarga olib borib qo'yiladi.

Rahbar signal berishi bilan qo'lida hech narsa bo'lmagan o'yinchi ko'zi bog'langan o'z o'rtog'ining otini aytib chaqiradi.

Chaqirilgan o'yinchi javob berish o'rniga qo'ng'iroqchani chaladi yoki toshlarni bir-biriga uradi. Tutuvchi tovush chiqqan tomonga qarab yuradi va o'z o'rtog'ini ushlab harakat qiladi, qochuvchi ham, o'z navbatida, ovoz chiqarib qochadi, ammo uzoqqa bora olmaydi. Chunki doira hosil qilib turgan boshqa o'yinchilar harakat doirasini cheklab qo'yadilar.

Agar narsa ushlagan o'yinchi o'z raqibining qo'lga tushsa, ikkala o'yinchi rollarini almashtiradilar va qochuvchi ushlangunga qadar o'yin davom ettiriladi. Undan keyin rahbar ko'z bog'lash uchun yangi ikkita o'yinchi tayinlaydi. O'yin shu tarzda davom ettirilaveradi.

Barcha o'ynovchilar davraga shunday tuziladilarki, ko'zi bog'langan o'yinchilar maydoncha chegarasidan uzoqlashib ketolmaydigan bo'ladilar.

O'yin qoidalari. 1. O'yinda qatnashadigan hamma o'quvchilar davrada bir-birlari bilan qo'l ushlab turadilar. 2. O'yinchilardan bittasi (narsa ushlagani) tutilgandan keyin o'yin vaqticha to'xtatiladi. Ularning rollari o'zgaradi va o'yin yana davom ettiriladi. Agar unisi ham ushlansa, davraga navbatdagi juft o'yinchi chiqariladi.

Metodik ko'rsatmalar. Bu o'yinni bolalar bog'chalarining katta guruh bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya etish mumkin. O'yin o'quvchilarning eshitish qobiliyatlarini, diqqatini, harakat tezligini, chaqqonligini va hokazolarini o'stiradi. Bu o'yinga o'quvchilarda qiziqish yo'qolishi bilan darhol uni to'xtatish lozim.

Olmaxonlar, dub yong‘oqlar va yong‘oqlar

O‘yin tasviri. O‘yinchilardan bittasi onaboshi qilib tayinlanadi. qolgan o‘yinchilar maydonchani o‘zlari hohlagan joylarida uchtadan bo‘lib, qo‘l ushlab turadilar. Har bir uchlikdagi o‘yinchilar kim olmaxon, kim yong‘oq, kim dub yong‘og‘i bo‘lishini o‘zaro kelishib oladi. Rahbarning “Olmaxonlar!” (“Dub yong‘oqlar!” yoki “Yong‘oqlar”) deb chaqirishi bilan tegishli o‘yinchilar o‘zlari turgan uchlikni tashlab, boshqa istagan uchlikka turib oladilar, ya‘ni chaqirilgan nomdagi o‘yinchilar bir-birlari bilan joy almashadilar. Joy almashish vaqtida onaboshi bo‘sh qolgan o‘rinlardan bittasiga turib oladi va u yerdan chiqib ketgan o‘yinchining nomini oladi. Joysiz qolgan o‘yinchi onaboshi bo‘ladi. O‘yin paytida bir marta ham onaboshi bo‘lmagan yoki boshqalarga nisbatan kamroq onaboshi bo‘lgan o‘ynovchi o‘yinda g‘olib chiqqan hisoblanadi. O‘yin natijalari hisoblab chiqilayotgan paytda birinchi onaboshining roli hisobga olinmaydi.

O‘yini qoidalari. 1. Uchala o‘yinchi qo‘l ushlab olgan paytda onaboshi davradan o‘rin egallay olmaydi. 2. Rahbar chaqirgan o‘yinchilar o‘rinlarini almashtirishga majburdirlar.

Metodik ko‘rsatmalar. O‘yin mobaynida har bir uchlikdan bir necha marta birdaniga ikkitadan o‘yinchini chaqirish (“Olmaxonlar!”, “Yong‘oqlar!” va hokazo deb chaqirish) mumkin.

O‘yinning o‘ziga xos harakatlari. Tez va qisqa yugurishlar.

To‘p o‘rtadagiga

O‘yin tasviri. O‘ynovchilar guruhlariga bo‘linib, uch yoki to‘rt davra hosil qiladilar. Har bir davrada tuzilgan o‘yinchilar quloch yoyib bir-birlarining oralarida yozilgan qo‘l sig‘adigan joy qoldiradilar. O‘yinchilar oyoqlarining uchi oldidan aylanma chiziq o‘tkaziladi. Har bir davra o‘rtasiga doiracha chizilib, unda onaboshi voleypol yoki (to‘ldirma) to‘p ushlab turadi. Onaboshi rahbar signal berishi bilan o‘z o‘yinchilariga to‘pni navbat bilan irg‘itadi va ular qaytargan to‘pni ilib ola boshlaydi. Onaboshi davradagi oxirgi o‘yinchi qaytargan to‘pni ilib olgandan keyin uni baland ko‘taradi. Bu bilan u to‘p tashlashish tugaganligini bildiradi.

O‘yini qoidalari. 1. To‘p tashlashish paytida onaboshi o‘zining doirachasidan chiqmasligi, davra bo‘lib turgan o‘yinchilar esa uning chizig‘ini bosmasliklari kerak. 2. To‘pni ilib olish va tashlashishda davrada turgan barcha o‘yinchilar navbat bilan qatnashishlari lozim. 3. To‘pni

tushirib yuborgan o‘yinchi uni borib olishi va o‘yinda belgilangan tartib bo‘yicha davradagi o‘rtog‘iga irg‘itib tashlashi kerak.

E s l a t m a. O‘ynovchilar o‘yinni yaxshilab o‘zlashtirib olganlaridan keyin to‘p tashlashishning sifatini hisobga olishga yoki tezlik uchun to‘pni irg‘itib tashlashishga o‘tish mumkin. Bunda to‘pni yerga kamroq tushirgan yoki to‘p tashlashishni boshqalarga qaraganda tezroq tamomlagan davra o‘yinchilari yutib chiqadi.

To‘pni turli shakldagi yengil predmetlar bilan (estafeta tayoqchalari, archa bujuri, qipiq yoki qum to‘ldirilgan xaltachalar va shuning kabilar bilan) almashtirish mumkin.

O‘yinning o‘ziga xos harakatlari. To‘p va predmetlarni irg‘itish va ilib olish.

Oq ayiqlar

O‘yin maydonchada yoki zalda o‘tkaziladi.

O‘yin tasviri. Maydonchani bir tomonidagi kichikroq joy atrofiga chiziq tortiladi. Bu katta muz parchasi, qolgan yerlar esa dengiz bo‘ladi. Maydonchadagi dengizni chiziq bilan chegaralab qo‘yish zarur. O‘yinchilardan bittasi onaboshi oq ayiq qilib tayinlanadi. Qolgan o‘yinchilar ayiqchalar bo‘ladi. Ayiq katta muz parchasi tomon yo‘l oladi, ayiqchalar esa butun maydoncha bo‘ylab istagan yerga joylashadilar.

Ayiq “Ovga chiqayapman!” – deb bo‘kirib, muz parchasidan dengizga qarab yuguradi va ayiqchalarni tuta boshlaydi. Biron ayiqchani tutishi bilan uni muz parchasiga olib kelib qo‘yadi. Keyin ikkinchi ayiqchani ushlaydi. Ikkita o‘yinchi ushlangach? Ular qo‘l ushlab qolgan o‘yinchilarni tuta boshlaydilar. Ular biror o‘yinchini quvib yetgan paytlarida qo‘llarini shunday birlashtiradilarki, ushlangan o‘yinchi ularning qo‘llari orasida qoladi. Shundan keyin ular “Ayiq yordamga!” – deb baqiradilar. Ayiq yugurib keladi va tutilgan o‘yinchiga qo‘l tekizadi, ya‘ni uni ushlaydi. Ushlangan o‘yinchi muz parchasiga kelib turadi. Muz parchasi ustidagi ushlangan o‘yinchikar ikkita bo‘lgach, ular ham qo‘l ushlab dengizda ayiqchalarni tuta boshlaydilar. Bunday juft o‘yinchilar har gal birona o‘yinchini o‘rab olsalar, “Ayiq, yordamga!” – deb baqiradilar. Ayiq yugurib keladi va tutqunni ushlaydi. O‘yin hamma ayiqchalar ushlangunga qadar davom ettiriladi. Eng oxirida ushlangan o‘yinchi eng chaqqon o‘yinchi hisoblanadi va keyingi o‘yinda u oq ayiq bo‘ladi.

O‘yin qoidalari. 1. Juft ayiqchalar o‘yinchilarni faqat qo‘llari bilan o‘rab olibgina tuta oladilar. 2. Ushlash paytida o‘yinchilarni tortqilash taqiqlanadi. 3. Maydoncha chegarasidan qochib chiqqan o‘yinchilar

ushlangan hisoblanadilar va muz parchasiga borib turadilar. 4. Juft ayiqchalar o'rab olgan o'yinchi ayiq kelib unga qo'l tegizgunga qadar qurshovdan sirg'alib chiqib, qochishi mumkin. 5. Ayiq birinchi juft ayiqchani ushlab olgandan keyin o'zi ayiqchalarni quvlab yurmasdan o'rab olinganlarinigina ushlaydi.

O'yin varianti – “Juftlab ushlash”. Bitta ushlovchi tayinlanadi, qolgan o'yinchilarning hammasi undan qochadi. Ushlovchi qochayotganlardan birini tutadi va u bilan bir juft bo'lib oladi. Ular o'yinchilarni qurshab olib, ushlay boshlaydilar. Ikkala tutilgan o'yinchi yana yangi juftni tashkil etadi. Har bir juft qochayotganlarni “Oq ayiqlar”dagi singari yordamga chaqirmasdan, mustaqil ravishda ushlaydi. Bunda ham o'yin hamma ushlangunigacha davom ettiriladi.

O'yinning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. O'yin o'quvchilarni tez va chaqqon harakat qilishga o'rgatadi. O'yin jarayonida o'quvchilarda kuzatuvchanlik, vaziyatni tezda anglab harakat qila bilish va qat'iyatlilik taraqqiy etadi. O'yin qatnashchilardan o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlariga moslay olishni talab qiladi.

Bu o'yindagi asosiy harakat yo'nalishni o'zgartirib yugurishdir.

Metodik ko'rsatmalar. Bu o'yin juda serharakat va hayajonli o'yindir. Har bir juft ayiqcha tutilgandan keyin qisqa dam olish bilan o'yindagi harakatchanlikni pasaytirish mumkin. Masalan, har gal yangi bir juft ayniqsa tutilishi bilan dengizdagi hamma juft ayiqlar rahbar signal berishi bilan muz parchasiga qaytib keladilar va yana signal berilgach, uyushgan holda ov qilish uchun yana dengizga tushadilar. Bu hali ushlanmagan ayiqchalarga birmuncha dam olish imkonini beradi va ovni yaxshiroq uyushtirishga yordam beradi. Bu usul endigina o'yinni boshlagan quyi sinf (III-IV sinf) o'quvchilari uchun qo'llaniladi.

Bu o'yin ancha mazmunli bo'lmasa ham uni kamida III sinf o'quvchilari bilan o'tkazish tavsiya etiladi. Chunki undagi harakatlarning mazmuni o'ynovchilardan harakat tajribasiga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan bu o'yinning “Juftlab ushlash” varianti o'tkaziladi. Ular uchun o'yinning bu variantini birmuncha murakkablashtirish, ya'ni har bir juft ayiq ushlangan o'yinchini muz parchasiga olib kelishi kerakligini talab etadigan qoidani kiritish mumkin. Bu qoidani faqat o'yin yaxshi uyushtirilgan hamda o'g'il va qiz bolalar bilan alohida-alohida o'tkazilgandagina joriy qilish mumkin.

Quyonglar polizga tushdi

O'yin tasviri. Ikkita doira chiziladi. Bunda doiralardan biri ikkinchisining ichiga chizilgan bo'ladi. Tashqi doiraning diametri 7-9 m, ichki doiraniki esa 3-4 m bo'ladi. Bitta onaboshidan boshqa o'yinchilar quyong bo'lib, katta doiradan tashqarida turadilar. Onaboshi (qorovul) ingichka rezinaga bog'langan qog'oz koptomchani ushlab kichik doiraning o'rtasida turadi. Kichik doira poliz bo'ladi, quyonglar ikki oyoqlab sakrab, goh polizga tushadilar, goh katta doira chizig'ining narigi tomoniga o'tadilar.

Qorovul poliz ichida va katta doira chizig'i bilan chegaralangan butun maydonda yugurib yuradi. U har gal o'ziga qaytib keladigan rezinali koptom bilan quyonglarni "otish"ga harakat qiladi, quyonglar har tarafga sakrab-sakrab chap berib qochadilar va tez-tez polizga tushishga intiladilar. Qorovul koptomgi tekkan quyong otilgan hisoblanadi. Otilgan quyong katta doiradan chiqishi va "o'q tekkan" joyini 5-6 marta shoshmasdan silashi kerak. Quyongni otgan qorovul boshqa o'yinchilar qatoriga kiradi va ular bilan birga o'yinda qatnashadi.

Rahbar polizga ko'proq tushib, qorovulning "o'qiga" kamroq duchor bo'lgan yoki sira ham "o'q" yemagan quyonglarni aniqlaydi. Bunday bolalar eng chaqqon o'yinchilar bo'lib hisoblanadilar.

O'yin qoidalari. 1. quyong bo'lib qatnashayotgan o'yinchilarga bir oyoqda yugurish va sakrash ma'n etiladi. 2. Onaboshi (qorovul) o'yinchilarga poliz va katta doira maydoni ichidagina koptom tegiza oladi.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Turgan joydan oldinga, orqaga sakrashlar, chap berib qilinadigan harakatlari.

Nomeri bilan chaqirish

O'yin tasviri. Onaboshi qilib tayinlangan o'ynovchidan boshqa hamma o'yinchilar katta davra hosil qiladilar va oldindan chizib qo'yilgan kichik doirachalarga turadilar. Rahbar o'ynovchilarni beshtadan qilib ajratadi va ularga nomerlar berib har kim o'z nomerini unutmasligini uqtiradi.

Onaboshi o'yinchilar saflangan katta doira o'rtasiga borib turadi. Shundan keyin rahbar istagan tartibida birdan beshgacha bo'lgan nomerlarni chaqiradi. Nomerlari aytilgan o'yinchilar bir-birlari bilan joylarini almashtirishga majburdirlar. Onaboshi bo'sh qolgan o'rinni egallashga intiladi. Agar u bunga muvaffaq bo'lsa, doirachadan chiqib ketgan o'yinchining nomerini oladi. Joysiz qolgan o'yinchi esa onaboshi bo'ladi. O'yin maydonida bir marta ham onaboshi bo'lmagan yoki boshqa

qatnashchilarga qaraganda kamroq onaboshi bo'lgan o'yinchilar yutib chiqadi. O'yin natijalarini hisoblab chiqishda birinchi onaboshining roli hisobga olinmaydi.

O'yin qoidalari. 1. Joy almashinish vaqtida doirachaga boshqa o'yinchidan oldin oyoq qo'ygan (hatto bitta oyog'ini qo'ygan bo'lsa ham) o'yinchi doirachani egallagan hisoblanadi. 2. Egallangan doirachadan o'yinchini itarib chiqarish, o'yinchilarni bir doirachadan ikkinchi doirachaga yugurib o'tish paytida ushlab qolish taqiqlanadi.

Eslatma. Birdaniga ikkitadan nomerni chaqirish, o'yin oxirida esa joylarni almashtirish uchun o'yinchilarning hammasini yoki yarmini "Juft nomerliklar!", "Toq nomerliklar!" deb chaqirish mumkin.

O'yinchilar turadigan doirachalar boshqa bironta belgilar bilan almashtirilishi ham mumkin.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Tez va qisqa-qisqa yugurishlar.

Bo'sh o'rin

O'yin maydonchada, zalda, yo'lakda yoki xonada o'tkaziladi.

O'yin tasviri. Bitta onaboshidan boshqa hamma o'yinchilar bir-birlarining oralarida ko'pi bilan yarim qadam joy almashtirib, doiraga saflanadilar. Onaboshi doiradan tashqarida turadi. Hamma o'yinchilar qo'llarini orqaga qo'yib turadilar. Onaboshi doira atrofida yugurib, o'yinchilardan birontasiga qo'l tegizadi va shundan keyin oldinga qarab yoki orqaga burilib, davra atrofida yugurishni davom ettiradi. Onaboshining qo'li tekkan o'yinchi onaboshiga teskari yo'nalishda atrofida yugurib ketadi va undan ilgariroq o'z joyini egallashga harakat qiladi. Ular yo'lda uchrashib, bir-birlari bilan salomlashadilar: qo'l berib so'rashadilar yoki yuzma-yuz cho'nqayib o'tiradilar va hokazo. Shundan keyin yana yugurishni davom ettiradilar.

Ulardan qaysi biri bo'sh joyni oldinroq egallasa, egallagan joyiga turib oladi, boshqasi esa onaboshi bo'ladi.

O'yinning qachon tugashi belgilanmaydi. O'yinni 3-5 minutgacha davom ettirish mumkin.

O'yin qoidalari. 1. Onaboshi o'zi bilan yugurishda musobaqalashishga chaqirayotgan o'yinchiga qo'l tegizishi kerak. 2. O'yinchilar doirani aylanib yugurayotganlarida ularga hech kim xalaqit bermasligi lozim. 3. Har ikkala o'yinchi uchrashgan paytda kelishib olingan topshiriqni bajarishlari kerak. Kelishilgan topshiriqni bajarmagan o'yinchi onaboshi bo'ladi.

O'yinning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. O'yin o'quvchilar diqqati va harakatlarining tezligini o'stirishga, ularning intizomli bo'lishi va aktiv dam olishlariga yordam beradi.

O'yinning o'ziga xos harakatlari. Keyin dam olish sharti bilan tez yugurish.

Metodik ko'rsatmalar. O'yinni turlicha murakkablashtirish mumkin. Masalan, yuguruvchilar bir-birlari bilan uchrashganlarida sakrab-sakrab turishlari yoki aylanishlari, yoxud qo'l kaftlarini urishtirishlari mumkin. Yuguruvchilar o'tadigan yo'lga har xil to'siqlar qo'yish, tagidan o'rmlab o'tish uchun arqoncha tortib turish, ustidan xatlab o'tish uchun skameykacha qo'yish mumkin. Yugurishni bir oyoqda sakrash bilan almashtirishga ham ruxsat etiladi. Bunda onaboshi o'yinchilardan birontasiga qo'l tegizgandan keyin bo'sh o'ringacha davra atrofidan sakrab kelishi kerak bo'ladi. Musobaqaga chaqirilgan o'yinchi ham xuddi shunday qiladi.

Yuguruvchilar uchrashish paytida bir-birlariga turtinishlarining oldini olish uchun ularning har birini o'ng tomondan yugurtirish kerak. Bo'sh o'rinning ko'zga aniqroq tashlanib turishi uchun o'rni qoldirib ketgan o'yinchining har ikkala qo'shnisi qo'llarini tepaga ko'tarib birlashtirib, darvoza qilib turishi mumkin.

Bu o'yinni dars vaqtida o'tkazganda o'yinchilarning ko'pchiligi ko'pi bilan ikki marta o'yinda qatnashadilar, ba'zilar esa bir marta ham yugura olmaydilar. Shuning uchun bu o'yin o'ynovchilarga fiziologik jihatdan juda kam ta'sir etadi.

Kim keldi.

O'yin tasviri. O'ynovchilar yarim doira bo'lib turadilar. Bir onaboshi tayinlanadi. Onaboshi o'ynovchilarga orqa o'girib turadi. O'qituvchi signal berishi bilan bir o'quvchi onaboshi oldiga keladi va qo'lini uning yelkasiga tegizib, darrov o'z joyiga borib turadi. Onaboshi "Bir, ikki, uch!" deb orqasiga buriladi va yelkasiga kim qo'lini qo'yganligini, ya'ni uning oldiga kim kelganligini aytib berishga harakat qiladi. Agar onaboshi kimning qo'l qo'yganligi yoki kelganligini topsa, topilgan o'yinchi onaboshi bo'ladi. Aks holda onaboshi onaboshiligicha qolaveradi.

O'yin qoidalari. 1. Onaboshi "Bir, ikki, uch!" demasdan orqaga burilmasligi lozim. 2. Onaboshi oldiga kelayotgan o'ynovchi sekin yurishi va gapirmasligi kerak.

Metodik ko'rsatmalar. O'yin vaqtida hamma jim turishi lozim, aks holda o'yinni davom ettirish qiyinlashadi va o'yin qiziqarli o'tmaydi.

Xulosa

Harakatli o'yinlarni o'rgatish jarayonida milliy istiqlol g'oyasi tamoyillariga alohida e'tibor berib, vatanparvarlik, jamoa sifatida yakdil harakat qilish, uyushqoqlik, tashabbuskorlik, o'zaro hamkorlik fazilatlarini shakllantirish, nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni tarbiyalashga doir fikr-mulohazalar, tavsiyalar bildirish mazkur uslubiy qo'llanmaning maqsadi hisoblanadi. Harakatli o'yinlar vositasida yoshlarni jismoniy barkamol qilib tarbiyalash sohasida jiddiy yutuqlar mavjud. Birinchidan, ushbu o'yinlarning tegishli adabiyotlarda jamlanishi, ikkinchidan, ularni o'rgatishga doir ma'lum adabiyotlarning mavjudligi, uchinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning muayyan tajriba to'plaganligi e'tiborlidir. Fikrimizcha, harakatli o'yinlarni o'rgatish sohasida ma'lum adabiyotlar mavjudligiga qaramasdan, bir qator muammolar ham bor. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, harakatli o'yinlarni o'rgatish jarayonida ko'proq jismoniy mashqlarni bajarishga ko'proq e'tibor beriladi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, nutq madaniyatini oshirish, intizomli, qat'iyatli, mard, halol, jasur qilib tarbiyalash kabi asosiy sifatlar ba'zan e'tibordan chetda qoladi. Aslida ma'naviy yetuk, ruhan chiniqqan inson yurt sharafini munosib himoya qiladi, jamiyatda o'z o'rnini topadi, boshqalarga nisbatan mehr-shafqatli, adolatli, har qanday vaziyatda oqilona fikr yuritib, ish ko'radigan barkamol avlod bo'lib voyaga etadi. Shuning uchun harakatli o'yinlarni o'rgatish jarayoniga kompleks yondashish lozim. Shundagina sportning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni beqiyos bo'ladi, jamiyat va xalq manfaati, yurt sharafini munosib himoya qila oladigan ongli sportchilar tobora ko'payib boraveradi. Xalq milliy o'yinlarini bolalar jinsiga qarab tasnif etishning o'ziga xos sabablari mavjud. Chunki kichik maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalar jismoniy rivojlanishida ba'zi bir farqlar kuzatiladi. O'g'il bolalarning bo'yi va og'irligi o'rtacha olganda ortiqroq, ko'krak qafasi kengroq va o'pkaning faoliyat hajmi kattaroq bo'ladi.

Faydalanilgan adabiyotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- 1.Sh. M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
- 2.I. A. Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.–176 b.
3. Usmonxo‘jayev T. va boshq. “500 harakatli o‘yinlar”. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2014.
- 4.Usmonxo‘jayev T. va boshq. “Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘uloti nazariyasi va uslubiyatlari”. -T.: “Ilm-ziyo”, 2006.
5. Faxriddin Xo‘jayev. “O‘smirlar uchun milliy harakatli o‘yinlar”. “Tafakkur nashriyoti” Toshkent-2015.
6. Faxriddin Xo‘jayev. “Bolalar uchun milliy harakatli o‘yinlar”. “Tafakkur nashriyoti” Toshkent-2015.
7. Usmonxo‘jayev T. va boshq. “O‘zbek xalq harakatli o‘yinlari”. -T.: “O‘qituvchi”, 2004.
8. Usmonxo‘jayev T. S. , Meyliyev X.A. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari”. -T.: 2004.
9. Salamov R. S., Kerimov F. A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. –T.: O‘zDJTI. 2009

Internet saytlari

www.sportedu.uz

www.olympic.uz

www.ziyonet.uz.

www.lex.uz www.sports.ru

www.kitobxon.uz

Mundarija

Kirish.....	3
1. O‘qituvchining harakatli o‘yinlarning tashkilotchisi va rahbari sifatidagi asosiy vazifalari.....	4
2. O‘yinni o‘tkazish shart-sharoitlari.....	8
3. Harakatli o‘yinlardan namunalar.....	14
Xulosa.....	27

J. Ahmedov

**HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKILLASHTIRISH
VA O‘TKAZISHDA QO‘YILADIGAN BA‘ZI
PEDAGOGIK TALABLAR**

Bosishga 10.04.2021 ruxsat etildi
Bichimi 60x84 ¹/₁₆, «Times new Roman» garniturasida, Ofset qog‘ozi
Bosma tabog‘i 2 p.l. Adadi 60 nusxa. Buyurtma № 24
«UMID DESIGN» nashriyoti
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 22-uy